

X. PO‘LATOV, P. ZOHIDOV, D. NOSIROVA,
M. MIRYUSUPOVA, SH. NURMUHAMEDOVA

ARXITEKTURAVIY KOMPOZITSIYA ASOSLARI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tegishli oliy o‘quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etgan*

Toshkent
“Talqin” nashriyoti — 2005

- A81** **Arxitekturaviy kompozitsiya asoslari:** Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/X. Po'latov, P. Zohidov, D. Nosirova va boshq.— T.: “Talqin”, 2005-96 b.
I. Po'latov X. va boshq.

ББК 85.11я73

Ushbu darslik “Arxitektura” va boshqa turdosh sohalar bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan. Uning asosiy maqsadi—bo'lajak mutaxassislarga hajmiy-fazoviy fikrlash qobiliyatini o'stirish, arxitekturaviy kompozitsiyaga oid eng zarur nazariy ma'lumotlarni berish, kompozitsiya bog'lash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. Kitobda nazariy bilimlar juda qisqa—ma'ruza tariqasida berilgan. Amaliy mashqlarni klauzura va vazifalar tariqasida o'tkazish tavsiya etilgan; ularni bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar keltirilgan.

SO‘ZBOSHI

Arxitekturaviy kompozitsiya fani bo‘ljak mutaxassisning badiiy-fazoiy mushohadasini kengaytiradi, kasbiy mahoratini oshiradi. Mohiyati jihatidan arxitekturaviy loyihalashning asosidir.

Ma‘lumki, arxitekturaning funksiya, konstruksiya va estetikadan iborat uch teng va ajralmas jihatlari mavjud. Mazkur fan arxitekturaning badiiy, ya‘ni estetik jihatini, qisman konstruktiv tomonini o‘rganadi. Demak, u mavhum narsalar to‘g‘risida so‘z yuritadi. Bu “Arxitekturaviy kompozitsiya asoslari” fanining asosiy ilmiy uslubidir.

Ushbu fanni ikki asosiy qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismida me‘moriy kompozitsiya vositalari (nuqta, chiziq, tekislik, hajm, metr, ritm, kontrast, nyuans, rang kabilar) o‘rganiladi. Sodda informatsion belgi loyihasi bajariladi. Talaba ikkinchi kursda boshlanadigan me‘moriy loyihalash fanini o‘zlashtirishga tayyor bo‘ladi. Fanning ikkinchi qismi turli arxitekturaviy tizim tuzish masalalariga bag‘ishlangan. Ochiq fazoiy muhit, hajmiy shakl, yopiq muhit kabi tizimlarning xususiyatlari o‘rganiladi. Har bir turdagi tizimni o‘rganish yakunida insonga nisbat qilingan, shartli funksiya berilgan kompozitsiyalarning klauzurallari bajariladi. Kompozitsion izlanishlar arxitekturaviy loyihalashga yaqinlashtiriladi. Mavhum kompozitsion vositalar konkretlashtiriladi.

Fan jami 17 mavzudan iborat. Har mavzu ma‘ruza (nazariya) hamda asosan maket tariqasida bajariladigan klauzura va vazifalardan iborat (amaliyot). Klauzuralar qisqa muddatda faqat darsxonada (auditoriyada) bajariladi. Ularda maketning texnik ijrosi bilan bog‘liq yetishmovchiliklar (chiziqlarning qo‘lda chizilishi, qirqishdagi biroz notekisliklar va h.k.) nazarga olinmaydi. Klauzurada maqsad qilib sarlavhasida ko‘rsatilgan hamda hal etilishi lozim bo‘lgan masalaning g‘oyasi ravshan aks etishi kerak. Vazifalarda qo‘shimcha ravishda maketlarning yuqori saviyada bajarilishi ham talab etiladi. Shakllarning qirralari yoriqsiz, aniq, tekis chiqarilishi lozim.

Amaliyot mashqlarini ko'proq 15x20 sm va 30x20 sm, ayrim hollarda 15x10 sm va 30x40 sm formatlardagi qattiq qog'ozlarda bajarish tavsiya etiladi. Kompozitsiya g'oyasi taqozo etgan hollarda tavsiyaviy o'lchamlardan chiqish ham mumkin. Maket asosini (platformasini) uchburchak, kvadrat, doira va boshqa shakllarda bajarish kerak bo'ladi. Har bajarilgan amaliy ishda klauzuraning yoki vazifaning nomi va talabning familiyasi, ismi qalamda yoki tushda yozilishi shart. Yozuvlar old tomonda berilsa, ularning umumiy kompozitsiyada ham ishtirok etishini nazarda tutish lozim.

Baholash quyidagicha tashkil etiladi. Klauzuralar dars tugagandan so'ng yig'ib olinadi va baholanadi. Vazifa darsxonada, o'qituvchi maslahati bilan eskiz tariqasida bajariladi. Vazifaning darsxonada bajarilgan eskiziga darsning oxirida reyting tizimida 40 foizgacha bo'lgan baho qo'yiladi. Qolgan 60 foizi uy sharoitida bajarilgan qismiga qo'yiladi.

Ushbu kitobning ro'yxatida keltirilgan barcha amaliy mashqlarni bajarish shart emas. Klauzura va vazifalarni akademik guruhlarining tay-yorgarlik darajasiga qarab ro'yxatda keltirilganlarining ichidan tanlab olish tavsiya etiladi.

Mazkur darslikda "Arxitektura tarixi va nazariyasi" fakultetining (avval ToshPI, 1991-yildan TAQI tarkibida) arxitekturaviy kompozitsiyadan to'plagan tajribasi mujassamlangan. Fan dastlab, 70-yillarda "Hajmiy - fazoviy kompozitsiya" deb atalgan. U Rossiyada 30- yillarda faoliyat ko'rsatgan "Oliy badiiy texnika ustaxonalari" (BXYTEMAC) va "Oliy badiiy texnika instituti" (BXYTEIH) tajribalariga asoslangan edi. Fanning dasturi kompozitsiyaning hajmiy - fazoviy jihatlariga kirmaydigan rang kabi kompozitsiya vositalari bilan kengaytirilgandan so'ng u hozirgi "Arxitekturaviy kompozitsiya asoslari" degan nomini oldi.

Fanni o'qitish tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, bunda eng muhimi talabalarning fazoviy tassavurlarini kengaytirish, mashg'ulotlar o'tkazish vaqtida kompozitsion yechimni ko'rsatib berish emas, balki mavzuga doir to'g'ri yo'nalish berish hamda talaba o'ylagan g'oyani ro'yobga chiqarishga yordam berishdir.

Mavzularda avval nazariya, keyin amaliy ishlar - klauzuralar (auditoriyada qisqa vaqt ichida bajariladigan mashq) hamda vazifalar (auditoriyada boshlab uy sharoitida tugatiladigan mashq) beriladi, oxirida

nazariy bilimni va hosil etilgan ko'nikmalarni mustahkamlash uchun savollar keltiriladi. Klauzuralar maket yoki grafik shakllarda bajariladi. Talabalar tomonidan bajariladigan vazifa va klauzuralarining sonini qisqartirish mumkin.

Ushbu darslik TAQIda chop etilgan "Me'moriy kompozitsiyadan uslubiy ko'rsatma" (1996-y.) va "Arxitekturaliy kompozitsiya asoslari" (2000-y.) o'quv qo'llanmasi ustida davom ettirilgan ishlarning mahsulidir. Kitobning "So'zboshi"ni, 1-mavzu "Kompozitsiya to'g'risida tushuncha", "Metr va ritm" va "Chizma tahlili" qismlarini X.Po'latov va D.Nosirova hamkorlikda; ma'ruza matnlaridagi tekislik (2-mavzuda) hamda yuza va relyefga (3-mavzuda) tegishli qismlarini Sh.Nurmuhammedova; "Masshtab va nisbat" qismini P.Zohidov; "Simmetriya" qismini D.Nosirova; "Hajmiy - fazoviy kompozitsiya turlari" qismini M.Miryusupova; qolgan boshqa qismlarini X.Po'latov yozgan.

Mazkur kitobning mazmunini boyitishga qaratilgan barcha tanqidiy fikr-mulohazalari uchun kitobxonlarga mualliflar oldindan minnatdorchilik bildiradilar.

Mualliflar

1-mavzu. KOMPOZITSIYA TO'G'RISIDA TUSHUNCHA

Ma'ruza rejası. Kompozitsiya tushunchasi. "Kompozitsiya" iborasining lug'aviy ma'nosi va ta'rifi. Adabiyot va san'atning boshqa turlari (musıqa, ashula, raqs, kino kabilar)dagi asarlarda kompozitsiyaning ko'rinishlari. Misollar. Fanning ahamiyati va maqsadi. Klauzura va mashqlarning kompozitsion mahoratni o'stirishdagi roli. Badiiy vositalar. Kompozitsiya mashqlardagi mavhumlik, shartlilik. Asar va tomoshabin orasidagi munosabat. Asarni idrok qilish. Kompozitsion talablar. Qismlar va jihatlarning ortasidagi munosabat. Qiyoslash. Qismlarni butunga keltirish. Asarning tugaligi. Muvozanat. Uyg'unlik. Nisbat. Tartib va xaos. Arxitekturaviy-badiiy vositalar. Hajmiy - fazoviy shakl xususiyatlari. Arxitekturaviy asarni idrok qilishdagi vaqtning ahamiyati.

Ma'ruza. Har qanday badiiy ijod mahsulı bo'lmish asarning mukammalligi, saviyasi, birinchi navbatda, kompozitsiya orqali namoyon bo'ladi. «Kompozitsiya» so'zi «yaxlitlik», «birlik», «o'zaro bog'liqlik» degan ma'nolarni bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, qismlarning butunlikka bog'liqligini ta'minlovchi sifatlar kompozitsiyani tashkil etadi.

Umuman olganda, asarning tuzilishi uning kompozitsiyasini tashkil qiladi. Asarning tuzilishi, kompozitsiyasi qancha puxta bo'lsa, uning saviyasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Adabiyotda, musıqa, ashula, raqs, kino va san'atning boshqa turlaridagi har qanday turfa asarlarda kompozitsiya mavjud. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidagi kompozitsiya negizini syujet (Otabekning Marg'ilonga borishi, Kumushga uylanishi, Homidning fitnasi, Kumushning zaharlanishi va nihoyat Otabekning shahid bo'lishi) tashkil qiladi. Klassik ashula asarlarida aksari kompozitsiyalar shunday: boshi past ovozda boshlanadi, o'rtasida avjga chiqiladi, oxiri ovozni biroz cho'zish orqali tugatilayotganligi bildiriladi.

Arxitekturada kompozitsiya deb me'morlikning tashkil etuvchilari bo'lgan hajm bilan fazoviy muhitning o'zaro bog'lanishiga aytiladi. Kompozitsiyadagi har qanday hajm va fazoviy muhitdan tashkil topgan yaxlitlik *hajmiy - fazoviy shakl* deb yuritiladi. Unga xos bo'lgan sifatlar me'moriy shakllarga ham xosdir.

Hajmiy-fazoviy shakllarning asosiy xususiyatlari shakl geometriyasi, fazodagi o'rni, kattaligi va massasidan iborat. Ularning qo'shimcha xususiyatlari qatoriga fakturasi, yorug'ligi va rangi kiradi. Bu xususiyatlarning

har biri ma'lum miqdorda o'zgarib, turli-tuman holatlar vujudga kelishi mumkin. Arxitekturani idrok etishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u to'g'risidagi tasavvur juda qisqa muddatda idrok etiladigan rassomlik, haykaltaroshlik yoki amaliy san'at asarlaridan farqli o'laroq uzoq muddat davomida idrok etiladi. Bu, ayniqsa, shaharsozlik asarlariga taalluqlidir.

“Arxitekturaviy kompozitsiya asoslari” fani me'morlik asarlarida qo'llaniladigan muhim badiiy yaxlitlikni ta'minlovchi vositalarni (rang, masshtab, ritm va boshqalarni) o'rgatishga qaratilgan. Bu vositalar tabiatda alohida holda uchramasa-da, ular ajratib olingan holda klauzuralar va vazifalar orqali o'rganiladi. *Klauzura* tezkorlik bilan bajariladigan loyihadir. Klauzuraning loyihadan asosiy farqi shundan iboratki, unda mo'ljallangan ishning - loyihaning g'oyasinigina, asosiy jihatlarinigina ochib beriladi. Faqat darsxonada bajariladigan klauzuralardan farqli o'laroq, vazifalarda darsxonalardan tashqari uy sharoitida ham ish (maketlash, loyihalash) davom ettiriladi. Klauzura tez ishlashga o'rgatsa, vazifa sarishtalik, qunt, sabr bilan ishlashga o'rgatadi.

Ijodiy jarayonda dastlabki g'oya eskiz tariqasida amalga oshiriladi. Bu ijod mahsuli nihoyatda ham tezkorlik bilan bajariladi. Bir necha eskiz yonma-yon qo'yilib, o'zaro qiyoslanadi va eng yaxshisi tanlab olinadi hamda nihoyasiga yetkaziladi.

Kompozitsiya tushunchasi bo'yicha amaliy ish

Bir amaliy mashq orqali talabaga kompozitsiya qonuniyat ekanligini yetkazishga harakat qilinadi.

1-klauzura. TARTIB VA XAOS

Ikki sifat: tartib va xaos qiyoslanadi. Mumkin qadar, xaosdan tartib chiqarishga harakat qilinadi. Klauzura 20x15 sm yoki 20x30 formatli qog'ozda bajariladi. Bo'yoq (akvarel yoki guash) qo'llash tavsiya etiladi.

Savollar

1. Kompozitsiya nima?
2. “Qism”, “butun” deyilganda nimalar tushuniladi?
3. Biror badiiy asarning kompozitsiyasini tahlil qilib bering.
4. Arxitekturaviy kompozitsiyaning o'ziga xosligi nimalardan iborat?
5. Arxitekturaviy-badiiy vositalarga nimalar kiradi?
6. Hajmiy-fazoviy shakllarning asosiy va qo'shimcha xususiyatlari nimalardan tashkil topgan?

2-mavzu. TEKISLIKDAGI KOMPOZITSIYA

Ma'ruza rejasi. Tekislik ta'rifi. Vizual maydon. Tasvir va fon. Ular orasidagi munosabat. Oddiy tasvir turlari. Nuqta, chiziq, tekislik, yuza. Ularning o'zaro bog'liqlilari. Nuqta, chiziq, tekisliklarni biriktirish. Uning xossalari. Geometrik va kompozitsion markaz. Tekislikdagi shakllar. Tekislik bilan undagi shakllar orasidagi munosabat. "Past", "tepa", "o'rta", "chap", "o'ng" tushunchalari. Tekislikni ifodalovchi (mustahkamlovchi) va uni buzuvchi burchaklar. Rang. Asosiy va hosilaviy ranglar. Spektr ranglarning tekislikni idrok etishdagi ahamiyati. Yaqinlashtiruvchi va uzoqlashtiruvchi ranglar.

Ma'ruza. Ko'zga ko'rinadigan, ya'ni moddiy borliqning tomoshabinga ko'rinadigan eng oddiy badiiy tasviri nuqtadir. Nuqtaning harakatga kelishi natijasida chiziq hosil bo'ladi. O'z navbatida chiziq harakatidan sirt, sirt harakatdan hajm hosil bo'ladi. Nuqtalar, chiziqlar va hajmlar tevaragidagi yoki ularning oraliqlaridagi "bo'shliq" - fazoviy muhit ham badiiy tasviriga ega. Har qanday me'moriy yoki shaharsozlik asarining kompozitsiyasi nuqta, chiziq, sirt, hajm hamda fazoviy muhit - makondan tashkil topadi.

Tekislik deb bir to'g'ri chiziqning ikkinchi to'g'ri chiziq bo'yicha harakat qilishi natijasida hosil bo'ladigan sathga aytiladi. Tekislikning to'rt xos-sasi bor.

1. Tekislikning chegaraviy, ya'ni chegaraga, konturga olingan holatlari mavjud. Bular uchburchak, to'rtburchak, doira. To'rtburchakning kuch chiziqlari uning diagonallaridir. Uchburchakda kuch chiziqlari medianalari bo'lsa, doirada - vertikal va gorizontal diagonallardir.

2. Tekislik kontrast tizimida ishlaydi. Fon bilan tekislik orasida kontrast bo'lmasa, tasvir yuvilib ketganday tuyiladi va tomoshabinga ta'sir etmaydi. Natijada tekislikning ko'rinishi o'zgaradi, sustlashadi. Shu o'rinda 2 misolni ko'rib chiqaymiz: a) kichik disk kichkina tekislikda joylashganda uning siqish, ta'sir zonasi aktivdir; b) ayni shu kattalikdagi disk katta tekislikda joylashganda uning siqish, ta'sir zonasi har xil ishlaydi - diskka yaqin joyda aktiv ishlaydi, undan uzoqda esa passiv ishlaydi. Tekislik konturi markazga qancha yaqinlashsa, tekislik shuncha qisqaradi. Yoki fon qancha kattalashsa, diskning aloqalari shuncha kuchsizlashadi. Tekislikni chegaralovchi chiziq ayni vaqtda tekislikni kontur bilan «ushlab» turgandek bo'ladi. Bu holda kontur chegara ekanligi juda aniq-ravshan idrok etiladi.

3. Tekislik chetlarining ishlashiga ta'sir etishiga qarab tekislik «harakatga» kirishi mumkin. Uning harakati biz (tomoshabin) tarafga yoki bizdan ketishga harakat qiladi. Konturga olingan shakllar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy shakllar biz tarafga harakat qiladi, salbiy shakllar - ichkariga, bizdan nariga harakat qiladi. Lekin ijobiy va salbiy shakllarning to'qnashgan hollari ham uchraydi.

4. Tekislik yana og'irlikni bildiruvchi xususiyatga egadir. To'g'ri oddiy shakllar har doim og'ir bo'lib tuyuladi.

Tekislik bo'yicha klauzura va vazifalar

Amaliy mashqlar tekislikning xossallarini o'rganishga qaratilgan. Dastlabki klauzuralarda kompozitsiyani (bog'liqlikni) bera oladigan eng kam ikki ishtirokchi bor: fon (tekislik) va tasvir (nuqtani ifodalalaydigan doiracha va to'g'ri to'rtburchak). Talaba «yuqori - past», «o'ng-chap», ta'sir kuchi, ta'sir maydoni kabi tushunchilarga ega bo'ladi Keyingi klauzuralar kompozitsiyasida tasvirlarning soni ko'proq. Mashqlarda hal etiladigan masalalar murakkablashadi.

1-klauzura. NUQTA VA FON

Biror unurni (doirani) fon yuzasi bo'ylab asta-sekin harakatlantirib, doiraning fonga ta'sir kuchi topiladi. Unurning eng yaxshi (komfort) joyi aniqlanadi. Mashq uchun 20x30 sm o'lchamli vatman qog'oz, diametri 3 sm bo'lgan doiracha kerak bo'ladi.

Ko'rsatmalar:

- unsurlar qog'oz yuzasida simmetrik yoki asimmetrik tarzda joylashishi mumkin;
- kompozitsiya bosh unsurga yoki markazga ega bo'lishi kerak. Bosh unurning boshqalarga nisbatan alohida ahamiyati uchta belgisiga ko'ra ya'ni: shakli, kattaligi va joylashishi orqali ochiladi;
- kompozitsiya muvozanati unsurlarning umumiy yuzasi, oraliqlar va bosh maydon (fon yuzasi) o'rtasidagi muvozanatdan iborat bo'ladi.

2-klauzura. "TASVIR" VA FON

Fon va maydonning orasidagi muvozanat holati, ya'ni tasvir ham, fon ham bir xilda e'tiborni tortadigan holat aniqlanadi. Mashq uchun 20 x 30 sm o'lchamli vatman qog'oz, yopishtirishga qora qog'oz, qaychi, chizg'ich kerak bo'ladi.

3-klauzura. NUQTA, CHIZIQ VA TO'G'RI TO'RTBURCHAKDAN IBORAT UCH KOMPOZITSIYA

Klauzurada fon bilan bir necha shakllar: alohida nuqtalar, alohida chiziqlar, alohida to'g'ri to'rtburchaklar (jami uch shakllar to'pi) o'rtasidagi bog'liqlikni va muvozanatni topish kerak bo'ladi. Har shakllar to'piga alohida - uch kompozitsiya tuziladi.

Kompozitsiyalarning tuzilishlari o'xshashdir. Ularda markaz bo'lishi lozim. Kompozitsiya asosi uning yaxlitligi hamda unsurlarning o'zaro bog'liqligidir. Mashqda fonning frontalligini, ya'ni fonning tomoshabin oldidagi bir yuza tariqasida idrok etilishini ta'minlash zarur. Kompozitsiyada ortogonal katak ham qo'llanilishi mumkin. Shakllar to'g'ri to'rtburchak bo'lishi kerak. Aks holda frontallik emas, balki fazoviylik vujudga keladi. To'g'ri to'rtburchaklarning nisbatlari 1:1 dan 1:5 gacha; shakllarning soni esa to'qqiztadan oshmagani ma'qul. To'g'ri to'rtburchaklar bir-biriga va qog'oz chetlariga nisbatan faqat parallel yoki perpendikular bo'lishi zarur. Unsur-lar qog'oz yuzasida simmetrik yoki asimmetrik tarzlarda joylashishi mumkin. Kompozitsiya bosh unsurga yoki markazga ega bo'lishi kerak. Bosh unsur-ni boshqalarga nisbatan alohida ahamiyati shakli, kattaligi va joylashishi orqali ochiladi. Mashq uchun 30 x 40 sm o'lchamli asos qog'oz, yopish-tirish uchun qora qog'oz, qaychi, PVA yoki rezina yelimi (kleyster ham ishlatilishi mumkin), chizg'ich, qalam kerak bo'ladi.

Klauzurani baholashda kompozitsion yechimning betakrorligi hamda biron-bir xaqiqiy narsalar tasvirini ko'z o'ngimizga keltira olish sifati na-zarga olinadi hamda bunday ishlar yuqoriroq baholanadi.

4-klauzura. CHIZIQLARDAN IBORAT STATIK KOMPOZITSIYA

Bu klauzura orqali talaba chiziqlar vizual yo'nalish berishini anglaydi. Talaba oldiga chiziqlar imkoniyatidan kelib chiqib statik turg'un holatni vujudga keltirish vazifasi qo'yiladi. Vertikal va gorizontal chiziqlardan foy-dalaniladi. Pargoriy (sirkul) chiziqlardan ham foydalanish mumkin (1-rasm).

5-klauzura. CHIZIQLARDAN IBORAT DINAMIK KOMPOZITSIYA

Chiziqning tiynati (xarakteri) harakatni ifodalaydi. Bu qonuniyatni zim-dan anglash klauzura maqsadini tashkil etadi. Chiziqlar bir yoki bir necha nuqtalarga - markazlarga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Nuqta (markaz)lar klauzura qog'ozi sathida yoki undan tashqarida joylashgan bo'lishi mumkin (2-rasm).